

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиутдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	



QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Igitov Jurabek Kuzibekovich

Toshkent arxitektura qurilish universiteti v.b. dotsent, PhD

Email: igitov2021@gmail.com

Annotatsiya. Qurilish tarmog'ining yuqori kapital sig'imi, ishlab chiqarish jarayonlarining ko'p bosqichliligi, investitsiya qaytuvchanligining nisbatan uzoq muddatni qamrab olishi hamda bozor konyunkturasiga yuqori darajada bog'liqligi mazkur sohada moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish masalalarini dolzarblashtiradi. Ushbu maqolada qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishning nazariy konsepsiyalari va zamonaviy yondashuvlari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Shu nuqtayi nazardan, qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishning iqtisodiy mazmuni, uning institutsional xususiyatlari hamda moliyaviy mexanizmlarining amal qilish qonuniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy maqolamizda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, nazariy umumlashtirish, institutsional baholash va iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillar natijasida qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishda an'anaviy manbalar, xususan, o'z mablag'lari, tijorat banklari kreditlari va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bilan bir qatorda, loyiha moliyalashtirishi, lizing, korporativ qimmatli qog'ozlar, davlat-xususiy sheriklik va raqamli moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, moliyalashtirishning zamonaviy yondashuvlari korxonalarining moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi, raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi ochib berilgan. Maqolada qurilish sanoatida moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslar tarkibini diversifikatsiya qilish, risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish hamda sohada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: qurilish sanoati, korxonalarini moliyalashtirish, nazariy konsepsiyalar, zamonaviy yondashuvlar, investitsiya, loyiha moliyalashtirishi, lizing, davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. The construction sector is characterized by high capital intensity, multi-stage production processes, relatively long investment payback periods, and a strong dependence on market conditions. This article examines the theoretical concepts and modern approaches to financing enterprises in the construction industry from a scientific and theoretical perspective. These features increase the relevance of issues related to the formation of financial resources and their efficient utilization in this field. From this standpoint, particular importance is attached to identifying the economic essence of financing construction enterprises, their institutional characteristics, and the regularities governing the functioning of financial mechanisms.

The study employs a systemic approach, comparative analysis, theoretical generalization, institutional assessment, and logical-economic analysis. The findings substantiate the need to use modern financing instruments effectively in the construction industry alongside traditional sources, including internal funds, commercial bank loans, and direct investment. Such instruments include project finance, leasing, corporate securities, public-private partnership mechanisms, and digital financial tools. The study also demonstrates that modern financing approaches exert a direct influence on the financial stability of enterprises, their investment attractiveness, competitiveness, and the pace of innovative development. The article formulates theoretical conclusions and practical recommendations aimed at improving the financing system in the construction industry, diversifying the structure of financial resources, strengthening risk management mechanisms, and ensuring sustainable economic growth in the sector.

Keywords: construction industry, enterprise financing, theoretical concepts, modern approaches, investment, project finance, leasing, public-private partnership, financial stability.



Аннотация. Высокая капиталоемкость строительной отрасли, многоэтапный характер производственных процессов, сравнительно длительный период окупаемости инвестиций, а также высокая зависимость от рыночной конъюнктуры актуализируют вопросы формирования финансовых ресурсов и их эффективного использования в данной сфере. В данной статье с научно-теоретической точки зрения исследованы теоретические концепции и современные подходы к финансированию предприятий строительной промышленности. С этой точки зрения важное значение приобретает определение экономического содержания финансирования предприятий строительной промышленности, его институциональных особенностей, а также закономерностей функционирования финансовых механизмов. В статье использованы методы системного подхода, сравнительного анализа, теоретического обобщения, институциональной оценки и экономико-логического анализа. По результатам исследования обоснована необходимость эффективного использования при финансировании предприятий строительной промышленности наряду с традиционными источниками, в частности собственными средствами, кредитами коммерческих банков и прямыми инвестициями, таких современных инструментов, как проектное финансирование, лизинг, корпоративные ценные бумаги, государственно-частное партнерство и цифровые финансовые инструменты. Кроме того, раскрыто, что современные подходы к финансированию оказывают непосредственное влияние на финансовую устойчивость предприятий, их инвестиционную привлекательность, конкурентоспособность и темпы инновационного развития. В статье сформулированы научные выводы и практические предложения, направленные на совершенствование системы финансирования в строительной промышленности, диверсификацию структуры финансовых ресурсов, усиление механизмов управления рисками, а также обеспечение устойчивого экономического роста в отрасли.

Ключевые слова: строительная промышленность, финансирование предприятий, теоретические концепции, современные подходы, инвестиции, проектное финансирование, лизинг, государственно-частное партнерство, финансовая устойчивость.

KIRISH

Qurilish sanoati milliy iqtisodiyot tarkibida ko'p tarmoqli aloqalarni shakllantiradigan, katta kapital qo'yilmalarni talab qiladigan va investitsion faollik darajasini bevosita aks ettiradigan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoqda yaratiladigan ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma obyektlari, turar-joy va ijtimoiy inshootlar iqtisodiy o'sishning moddiy poydevorini mustahkamlaydi. Shu bois qurilish sanoati korxonalari faoliyatini barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash masalasi nafaqat alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar, balki butun iqtisodiyot rivoji nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Qurilish sohasining o'ziga xosligi shundaki, unda ishlab chiqarish jarayoni uzoq muddatli loyihalar asosida tashkil etiladi, xarajatlar bosqichma-bosqich shakllanadi, daromadlarning qaytishi aksariyat hollarda kechikkan davrlarda namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda korxonalarining aylanma mablag'lari, investitsion xaziralari va jalb qilingan tashqi moliya manbalari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Qurilish jarayonida smeta qiymatining o'zgarishi, materiallar narxining tebranishi, shartnomaviy munosabatlardagi kechikishlar hamda kredit resurslari qiymatining yuqoriligi moliyalashtirish tizimiga qo'shimcha bosim yuklaydi.

Ilmiy muammoning mohiyati shundan iboratki, qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishga doir an'anaviy yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi, moliyaviy instrumentlarning ko'payishi, raqamli iqtisodiyot elementlarining kengayishi hamda risklarni boshqarishga nisbatan yangi talablar bu jarayonni yangicha nazariy yondashuvlar asosida qayta baholashni talab etmoqda. Xususan, o'z mablag'lari va bank kreditlari bilan cheklanib qolgan moliyalashtirish modeli qurilish korxonalarining innovatsion va investitsion ehtiyojlarini to'liq qoplashga har doim ham qodir emas.

Mazkur tadqiqotning maqsadi qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishning nazariy konsepsiyalarini ochib berish, amalda qo'llanilayotgan moliyaviy manbalar va mexanizmlarni tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy moliyalashtirish yondashuvlarining imkoniyatlari hamda cheklovlarini asoslashdan iborat.

Shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: moliyalashtirish tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlash; qurilish korxonalari moliyaviy ta'minotining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish; an'anaviy va zamonaviy moliyalashtirish usullarini solishtirish; moliyaviy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda sohada mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Shu ma'noda qurilish sanoatida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish investitsion faollikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini tartibga solish, pul oqimlarini barqarorlashtirish va tarmoqning raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarni moliyalashtirish iqtisodiy adabiyotlarda xo'jalik yurituvchi subyektning joriy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investitsion rivojlanishini ta'minlash va strategik maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni shakllantirish, jalb qilish, taqsimlash hamda samarali boshqarish jarayoni sifatida talqin

etiladi [1;2;3]. Mazkur kategoriya faqat mablag' manbalarini topish bilan cheklanmay, balki kapital tuzilmasining maqbulligi, moliya resurslarining qiymati, ulardan foydalanish muddati, risk darajasi va moliyaviy qarorlarning samaradorligi kabi muhim jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Shu ma'noda moliyalashtirish korxonaning moliyaviy barqarorligi, bozordagi raqobatbardoshligi va uzoq muddatli o'sish salohiyatini belgilaydigan strategik omil hisoblanadi.

Korporativ moliya nazariyasida moliyalashtirish masalasi asosan kapital tuzilmasi, ichki va tashqi moliya manbalari o'rtasidagi nisbat, likvidlikni ta'minlash, investitsiya qarorlarini qabul qilish hamda risklarni boshqarish nuqtayi nazaridan o'rganiladi [1;3;4]. Ayrim tadqiqotchilar korxonaga qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida kapital qiymatini pasaytirishga urg'u bersa, boshqalari moliyaviy moslashuvchanlik, pul oqimlari barqarorligi va investitsion jozibadorlikni ustuvor deb biladi. Shu bois moliyalashtirish nazariy jihatdan bir yoqlama emas, balki ko'p omilli va ko'p bosqichli iqtisodiy jarayon sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalarda moliyaviy resurslar odatda ichki va tashqi manbalarga ajratiladi [2;6]. Ichki manbalarga taqsimlanmagan foyda, amortizatsiya ajratmalari, turli rezerv jamg'armalari va korxonaning boshqa ichki imkoniyatlari kirs, tashqi manbalar sifatida bank kreditlari, obligatsion qarzl, investor mablag'lari, lizing, faktoring, aksiyadorlik kapitali va boshqa jalb qilingan resurslar ko'rsatiladi. Adabiyotlarda korxonaga uchun eng samarali moliyalashtirish modeli aynan ushbu manbalarning tarkibiy mutanosibligi, ularning qiymati va moliyaviy xavf darajasiga bog'liq ekani ta'kidlanadi [1;4].

Qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirish umumiy korporativ moliyalashtirish modellaridan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, ushbu tarmoq yuqori kapital talabchanlikka ega bo'lib, qurilish materiallari, maxsus texnika, muhandislik kommunikatsiyalari, mehnat resurslari va logistika xizmatlariga katta hajmdagi xarajatlarni talab qiladi [5;8].

Ikkinchidan, qurilish loyihalari ko'pincha uzoq sikllik xususiyatga ega bo'lib, sarmoya kiritilishi bilan moliyaviy natijaning qaytishi o'rtasida ma'lum vaqt farqi yuzaga keladi. Bu korxonaning pul oqimlarini aniq rejalashtirish, likvidlikni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni saqlashni alohida ahamiyatli qiladi.

Uchinchidan, qurilish sohasida moliyaviy risk darajasi nisbatan yuqori bo'ladi. Bu holat bozor sharoitidagi o'zgarishlar, qurilish materiallari narxining o'sishi, smeta qiymatining qayta ko'rib chiqilishi, inflyatsion bosim, valyuta kurslari tebranishi, shartnomaviy kechikishlar va hatto ob-havo omillari bilan izohlanadi [3;7;8].

To'rtinchidan, qurilish sohasi ko'p ishtirokchilik iqtisodiy tizim bo'lib, unda buyurtmachi, bosh pudratchi, subpudratchi, bank, investor, ta'minlovchi va davlat institutlari o'rtasida murakkab moliyaviy munosabatlar shakllanadi. Mazkur zanjirdagi har qanday uzilish pul oqimlarining izchilligiga, xarajatlarning tuzilmasiga va loyihaning umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [5;9;11].

Qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirish nazariy jihatdan tushuntirishda bir nechta konseptual yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. An'anaviy moliyalashtirish konsepsiyasiga ko'ra, korxonaga faoliyati ichki mablag'lar va qarz resurslari o'rtasidagi maqbul muvozanat orqali ta'minlanadi, asosiy e'tibor kapital tuzilmasi va moliya manbalari qiymatiga qaratiladi [1;2]. Biroq bu yondashuv qurilish sohasiga xos barcha institutsional va risk omillarini to'liq qamrab olmaydi.

Investitsion yondashuv moliyalashtirishni kelgusida daromad keltiradigan loyihalarga kapitalni samarali joylashtirish mexanizmi sifatida ko'radi [5]. Qurilish sohasida bu yondashuv ayniqsa dolzarb, chunki loyihalar bo'yicha qarorlar aksariyat hollarda pul oqimlari prognozi, loyiha qiymati, qoplanish muddati va moliyaviy qaytim darajasi asosida qabul qilinadi. Institutsional yondashuv esa moliyalashtirish jarayonini huquqiy me'yorlar, davlat siyosatlari, shartnomaviy munosabatlar, ruxsat berish tartiblari va moliya bozori infratuzilmasi ta'sirida shakllanuvchi tizim sifatida baholaydi [9;10;11]. Qurilish tarmog'ida bu jihat alohida muhim, chunki davlat ishtirokining salmog'i yuqori bo'lgan infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalarda institutsional muhit moliyaviy qarorlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Riskka asoslangan moliyalashtirish konsepsiyasi moliyaviy qarorlarni loyihaning xavf darajasi, pul oqimi barqarorligi, kreditor uchun kafolatlar va ehtimoliy yo'qotishlar nuqtayi nazaridan qabul qilishni nazarda tutadi [7]. Zamonaviy ilmiy qarashlarda barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan moliyalashtirish yondashuvi ham tobora kuchayib bormoqda. Unda moliyaviy qarorlar nafaqat iqtisodiy foyda, balki resurs tejamlorligi, ekologik ta'sir, ijtimoiy ahamiyat va uzoq muddatli barqarorlik mezonlari asosida ham baholanadi. Bu qurilish sohasida "yashil" qurilish, energiya samaradorligi, raqamli nazorat va shaffof moliyaviy boshqaruv kabi yo'nalishlarning ahamiyati oshib borayotganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korporativ moliyalashtirishning umumiy nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishning tarmoqqa xos xususiyatlarini an'anaviy va zamonaviy moliyaviy instrumentlar bilan uyg'un holda kompleks o'rganishda ma'lum ilmiy bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Xususan, loyihani moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, korporativ qimmatli qog'ozlar, lizing, faktoring va raqamli moliyaviy instrumentlarning qurilish sohasidagi o'zaro bog'liqligi hamda



ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligi va uni davom ettirish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirish jarayonini har tomonlama yoritish maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, nazariy umumlashtirish, institutsional tahlil, iqtisodiy-mantiqiy tahlil va mazmunli tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv tadqiqot obyektini alohida moliya manbalari yoki alohida qarorlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va institutsional omillar tizimi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu usul qurilish sohasida moliyalashtirishning ko'p bosqichli va ko'p ishtirokchili xususiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida an'anaviy moliyalashtirish manbalari — ichki mablag'lar, bank kreditlari va investitsiya kirimlari — bilan zamonaviy moliyaviy instrumentlar, jumladan, loyiha moliyalashtirishi, davlat-xususiy sheriklik, lizing, faktoring, korporativ qimmatli qog'ozlar va raqamli moliyaviy yechimlar solishtirildi. Ushbu solishtirish orqali har bir instrumentning qurilish sohasi uchun afzalliklari, cheklovlari va qo'llanish shartlari aniqlashtirildi. Shuningdek, mazkur usul orqali moliyalashtirish samaradorligiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarning nisbiy ta'siri baholandi.

Nazariy umumlashtirish usuli korporativ moliya, investitsiya nazariyasi, risklarni boshqarish va institutsional iqtisodiyot sohalaridagi ilmiy qarashlarni bir tizimga keltirish imkonini berdi. Ushbu usul yordamida qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishga oid asosiy nazariy konsepsiyalar — an'anaviy, investitsion, institutsional, riskka asoslangan va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan moliyaviy yondashuvlar — tartibli ravishda tahlil qilindi. Institutsional tahlil orqali davlat siyosatlarini, huquqiy tartibga solish, shartnomaviy munosabatlar, moliya bozori infratuzilmasi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining moliyalashtirish jarayoniga ta'siri o'rganildi.

Iqtisodiy-mantiqiy tahlil usuli qurilish sanoatida moliyalashtirish manbalari, pul oqimlari, risklar, xarajatlar tuzilmasi va korxonaning moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini asoslashda qo'llanildi. Mazmunli tahlil esa mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va nazariy manbalardan olingan qarashlarni qayta ishlash, guruhlash va umumlashtirish orqali tadqiqotning konseptual asosini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqotning axborot bazasini korporativ moliya va loyiha moliyalashtirishi bo'yicha fundamental ilmiy manbalar [1–7], qurilish iqtisodiyotiga oid o'quv va amaliy adabiyotlar [8], shuningdek, investitsiya faoliyati, davlat-xususiy sheriklik va shaharsozlik munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar [9–11] tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida manbalarni tanlashda ularning mavzuga bevosita aloqadorligi, nazariy va amaliy ahamiyati, shuningdek, qurilish sohasida moliyalashtirish modellarini asoslashga xizmat qilishi mezon sifatida qabul qilindi.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot konseptual-analitik xususiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi muayyan korxonalar misolida empirik hisob-kitoblar olib borishdan ko'ra, qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishning nazariy asoslari, institutsional xususiyatlari va zamonaviy mexanizmlarini tizimlashtirishdan iborat bo'ldi. Bu tadqiqot natijalarini keyingi bosqichlarda amaliy tahlillar, moliyaviy modellar yoki tarmoq korxonalarini misolida keys-tadqiqotlar bilan boyitish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishda an'anaviy manbalar hali ham asosiy o'rinni egallaydi. O'z mablag'lari korxonaning moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi, tashqi qarz yukini kamaytiradi va qaror qabul qilishda nisbatan erkinlik beradi. Biroq qurilish sohasidagi kapitalga talabchanlik yuqori bo'lgani uchun ichki resurslar ko'p hollarda loyihalarni to'liq moliyalashtirish uchun yetarli bo'lmaydi. Shu sababli korxonalar bank kreditlari, sheriklik asosidagi sarmoyalar va boshqa jalb qilingan mablag'larga murojaat qiladi.

Bank kreditlari qurilish korxonalarini uchun nisbatan tez jalb qilinadigan moliyaviy resurs hisoblanadi. Ularning afzalligi aylanma mablag' yetishmovchiligini qoplash, qurilish ishlarida uzilishlarning oldini olish va texnika hamda uskunalarni moliyalashtirish imkonini berishda namoyon bo'ladi. Biroq tahlil natijalari kredit resurslarining yuqori qiymati, garov ta'minotiga bo'lgan qat'iy talablar va qaytarish muddatlarining ayrim hollarda qurilish sikllari bilan mos kelmasligi sababli ushbu manbaning cheklanganligini ko'rsatadi. Demak, bank kreditlari muhim manba bo'lsa-da, ularni yagona va universal moliyalashtirish vositasi sifatida baholash to'g'ri emas.

Investitsiya kirimlari, ayniqsa strategik investorlar yoki sheriklik asosidagi kapital ishtirokidagi mablag'lar, yirik qurilish loyihalari uchun katta ahamiyatga ega. Bunday mablag'lar faqat moliyaviy resurs sifatida emas, balki yangi texnologiya, boshqaruv tajribasi, bozorlarga kirish imkoniyati va institutsional ishonch manbai



sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu holat qurilish sanoatida moliyalashtirishni tor ma'noda "mablag' jalb qilish" deb emas, balki "resurslar va imkoniyatlar majmuini safarbar etish" deb talqin etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Qurilish sohasida moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan smeta va moliyaviy rejalashtirish sifatiga bog'liq. Agar loyiha qiymati real resurs xarajatlari, ehtimoliy risklar, inflyatsion bosim va vaqt omillari hisobga olingan holda shakllantirilsa, moliyalashtirish rejasi ham barqaror bo'ladi. Aks holda, smetadagi xatolar, ish hajmlarining noto'g'ri baholanishi yoki zaxira koeffitsiyentlarining yetarlicha hisobga olinmasligi keyinchalik qo'shimcha moliyalashtirish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bu loyiha muddatining kechikishi, xarajatlarning ortishi va shartnomaviy majburiyatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Pul oqimlarini boshqarish qurilish korxonalarini uchun hal qiluvchi omillardan biri ekani aniqlandi. Tushumlar va to'lovlar o'rtasidagi vaqt tafovuti, ayniqsa uzoq siklliy loyihalarda likvidlik muammolarini keskinlashtiradi. Shu sababli qurilish tashkilotlari ishlar hajmini qabul qilish grafigi, buyurtmachidan tushumlar, subpudratchilarga to'lovlar, kreditlarni so'ndirish va materiallar sotib olish kalendarini yagona moliyaviy grafik asosida boshqarishi zarur. Tahlillar moliyaviy monitoring va ichki nazorat tizimlari kuchli bo'lgan korxonalarda mablag'lardan samarali foydalanish darajasi yuqoriroq bo'lishini ko'rsatadi.

Zamonaviy yondashuvlar tahlili loyiha moliyalashtirishini qurilish sohasi uchun eng istiqbolli instrumentlardan biri sifatida baholash imkonini berdi. Uning afzalligi shundaki, moliyaviy qarorlar korxonaning umumiy balansiga emas, balki muayyan loyihaning pul oqimi, iqtisodiy asoslanganligi va risklar taqsimotiga tayanadi. Bu usul, ayniqsa yirik infratuzilmaviy, sanoat va ko'p bosqichli obyektlarda samarali bo'lib, risklarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlashga, investitsiya samaradorligini aniq baholashga va moliyaviy intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, loyiha moliyalashtirishi qurilish sohasida an'anaviy qarzashtirishning to'liq o'rnini bosmasa-da, uni strategik jihatdan to'ldiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat-xususiy sheriklikni tahlil qilish uning qurilish sohasidagi institutsional ahamiyatini ochib berdi. Ushbu mexanizm davlat budjet yukini qisman yengillashtirish, xususiy kapitalni infratuzilmaviy va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarga jalb qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish va loyihalarni amalga oshirish sur'atini tezlashtirish imkonini beradi. Qurilish sohasida yo'llar, muhandislik tarmoqlari, ijtimoiy muassasalar, turar-joy va kommunal infratuzilma obyektlarini barpo etishda ushbu modelning istiqboli yuqori. Biroq uning samaradorligi huquqiy aniqlik, majburiyatlarning shaffof taqsimoti, risklar bo'linishi va davlat tomonidan kafolat mexanizmlarining qay darajada shakllanganiga bevosita bog'liq.

Lizing qurilish texnikasi va maxsus uskunalarni jalb qilishda samarali moliyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi. U korxonaga katta bir martalik kapital xarajati qilmasdan ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish imkonini yaratadi, bu esa aylanma mablag'larni boshqa ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirishga sharoit tug'diradi. Faktoring esa debitor qarzlarni aylantirishni jadallashtirish va buyurtmachidan kechikib tushadigan to'lovlar ta'sirini yumshatishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa aylanma mablag' taqchilligi kuchli bo'lgan sharoitda faktoring likvidlikni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida foydalidir.

Korporativ moliyaviy instrumentlar, jumladan, obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog'ozlari, qurilish korxonalarini uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishning istiqbolli yo'li sifatida baholandi. Bunday instrumentlar, ayniqsa moliya bozori infratuzilmasi rivojlangan va investorlar ishonchi yuqori bo'lgan muhitda uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ularni qo'llash uchun moliyaviy hisobot shaffofligi, korporativ boshqaruv sifatining yuqoriligi va bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlangan bo'lishi talab etiladi.

Raqamli moliya va fintex yechimlar qurilish sanoatida moliyalashtirish jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishi mumkinligi aniqlandi. Elektron to'lov va hisob-kitob tizimlari tranzaksiyon xarajatlarni kamaytiradi, hisob-kitob intizomini mustahkamlaydi va moliyaviy operatsiyalar ustidan tezkor nazorat o'rnatish imkonini beradi. Moliyaviy axborotlarni raqamli formatda yuritish, loyihaviy xarajatlar monitoringi, bajarilgan ishlar hajmini elektron kuzatish va avtomatlashtirilgan risk baholash tizimlari qurilish korxonalarini uchun shaffoflik, tezkorlik va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Bu esa raqamli moliyani faqat texnik qo'shimcha vosita emas, balki moliyaviy boshqaruvni takomillashtiruvchi strategik instrument sifatida ko'rish zarurligini anglatadi.

Tahlil jarayonida qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirishdagi asosiy muammolar ham aniqlandi.

Birinchi muammo — uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyaviy resurslar taqchilligidir.

Ikkinchi muammo — kredit resurslarining qimmatligi va garov ta'minotiga oid cheklovlar.

Uchinchi muammo — investitsion risklarning yuqoriligi, bozor muhitidagi o'zgarishlar, materiallar narxining keskin tebranishi va shartnomaviy kechikishlar bilan bog'liq noaniqliklardir.

Ushbu muammolar qurilish sohasida moliyalashtirishga nisbatan an'anaviy yondashuvlar yetarli emasligini va diversifikatsiyalashgan, riskka chidamli hamda institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlangan modellar zarurligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar asosida shu xulosaga kelish mumkinki, qurilish sanoati korxonalarini uchun eng maqbul moliyalashtirish modeli bir manbaga tayanadigan emas, balki ichki mablag'lar, bank kreditlari, investitsiya



resurslari, loyiha moliyalashtirishi, davlat-xususiy sheriklik, lizing, faktoring, korporativ qimmatli qog'ozlar va raqamli moliyaviy instrumentlar o'zaro uyg'unlashgan diversifikatsiyalashgan moliyaviy mexanizm bo'lishi lozim. Bunday model moliyaviy risklarni pasaytirish, pul oqimlari barqarorligini ta'minlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tarmoq korxonalarining investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, qurilish sanoatida moliyalashtirish tizimini takomillashtirish uchun davlat rag'batlantiruvchi mexanizmlarini kuchaytirish, institutsional muhitni yaxshilash, shartnomaviy intizom va moliyaviy shaffoflikni oshirish, moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish hamda korxonada darajasida moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish maqsadga muvofiqdir. Aynan shu yo'nalishlar qurilish sohasida barqaror iqtisodiy o'sish, moliyaviy muvozanat va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy shartlari sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirish ko'p omilli, murakkab va institutsional jihatdan sezgir iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Tarmoqning kapital sig'imi yuqori, loyihalarning uzoq siklliligi va risk darajasining sezilarlilikligi moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanishda alohida yondashuvni talab etadi.

Qurilish korxonalarini moliyalashtirishning nazariy konsepsiyalari mazkur sohada moliyaviy qarorlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. An'anaviy yondashuvlar korxonaning asosiy ehtiyojlarini qoplashda muhim bo'lsa-da, zamonaviy sharoitda investitsion, institutsional, riskka asoslangan va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan yondashuvlar yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Amaliy jihatdan qaralganda, qurilish sanoati korxonalarini uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, pul oqimlarini samarali boshqarish, loyihaviy yondashuvni kuchaytirish va raqamli moliya elementlarini joriy etish muhim vazifa hisoblanadi. Loyiha moliyalashtirishi, davlat-xususiy sheriklik, lizing, faktoring va korporativ moliyaviy instrumentlar sohada moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qurilish sanoatida moliyalashtirish tizimini takomillashtirish faqat mablag' jalb qilish bilan emas, balki moliyaviy boshqaruv sifati, institutsional muhit, risklarni baholash va zamonaviy moliyaviy mexanizmlarning uyg'un qo'llanilishi bilan ta'minlanadi. Shu asosda qurilish korxonalarining investitsion jozibadorligi, raqobatbardoshligi va barqaror o'sish salohiyati sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brealey R. A., Myers S. C., Allen F., Edmans A. Principles of Corporate Finance. 14th ed. McGraw Hill, 2022. 1056 p.
2. Ross S. A., Westerfield R. W., Jordan B. D. Fundamentals of Corporate Finance. 14th ed. McGraw Hill, 2024. 1024 p.
3. Brigham E. F., Ehrhardt M. C. Financial Management: Theory and Practice. 17th ed. Cengage Learning, 2023. 1200 p.
4. Damodaran A. Corporate Finance: Theory and Practice. 2nd ed. Wiley, 2001. 1008 p.
5. Yescombe E. R. Principles of Project Finance. 2nd ed. Academic Press, 2013. 578 p.
6. Fabozzi F. J., Modigliani F. Capital Markets: Institutions and Instruments. 4th ed. Prentice Hall, 2009. 680 p.
7. Stiglitz J. E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. 1981. Vol. 71, No. 3. P. 393–410.
8. Rasulova Sh. G'. Qurilish iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma. JizPI, 2023. 213 b.
9. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4329270>
10. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>
11. O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi // URL: <https://lex.uz/docs/-5307951>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100